

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**“MAKTABGACHA TA’LIM: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
1-To`plam**

**2023 yil 30 may  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston**



***"PRESCHOOL EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN  
APPROACHES"*  
International scientific-practical conference**

**May 30, 2023  
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan**

**Tashkent - 2023**

**“MAKTABGACHA TA’LIM: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLAR” mavzusida o‘tkaziladigan Xalqaro ilmiy amaliy anjumanining tahririy  
komissiyasi  
TARKIBI**

| <b>№</b> | <b>F.I.Sh.</b>            | <b>Lavozimi</b>                                                                                                                                                  | <b>Tahririy<br/>komissiyasi<br/>lavozimi</b> |
|----------|---------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|
| <b>1</b> | <b>M.T.Hamdamaova</b>     | <b>Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani,<br/>dotsent (PhD)</b>                                                                                                    | <b>Komissiya raisi</b>                       |
| <b>2</b> | <b>N.N.Djamilova</b>      | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim metodikasi kafedra p.f.d.,<br/>professori</b>                             | <b>Komissiya raisi<br/>o‘rinbosari</b>       |
| <b>4</b> | <b>D.R.Babayeva</b>       | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim metodikasi kafedra p.f.n.,<br/>professori</b>                             | <b>Komissiya raisi<br/>o‘rinbosari</b>       |
| <b>5</b> | <b>Sh.A.Sadikova</b>      | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim metodikasi kafedra p.f.n.,<br/>professori</b>                             | <b>A’zo</b>                                  |
| <b>6</b> | <b>F.U.Jumanova</b>       | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim metodikasi kafedra mudiri,<br/>dotsenti</b>                               | <b>A’zo</b>                                  |
| <b>7</b> | <b>G.Sh.Shirbachayeva</b> | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi<br/>kafedra mudiri, v.b. dotsenti (PhD)</b> | <b>A’zo</b>                                  |
| <b>8</b> | <b>D.A.Choriyeva</b>      | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi<br/>kafedra v.b. dotsenti (PhD)</b>         | <b>A’zo</b>                                  |
| <b>9</b> | <b>N.T.Jo`rayeva</b>      | <b>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat<br/>pedagogika universiteti Maktabgacha<br/>ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi<br/>kafedra v.b. dotsenti (PhD)</b>         | <b>A’zo</b>                                  |

**Zoom manzili:**

<https://us02web.zoom.us/j/5226377287?pwd=ZGg5cGdaRDV6eFF3bGorU1RDN1dYZz09>

Konferensiya identifikatori

**Rais: dots. M.T.Hamdamaova**

**Kotib: dots.v.b. D.A.Choriyeva**

hal qilish mumkin. Universitetda o'qitish va ta'lim usullarini o'zgartirish oqilona ko'rinadi. Bunda ta'lim mazmuni emas, balki faoliyatni tashkil etish shakllari va usullari birlashtiriladi. Muammoli o'qitish usullari darajasini oshirish, ularni tadqiqot tekisligiga o'tkazish to'g'ridan-to'g'ri ta'minlaydi. Talabalarning ilm-fan olamiga kirishi, bu kognitiv yo'llarni qisqartiradi va tadqiqot faoliyatiga dinamik komponentni kiritadi. Bunday rolni fundamental ta'limga asoslangan mustaqil loyiha qidiruvi o'ynashi mumkin, buning natijasida integrativ vazifalar hal qilinadi. Ishning ikkinchi yo'nalishi mutaxassisning ijtimoiy integratsiyalashuviga qaratilgan universitetning ta'lim faoliyati bo'lishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda har qanday kasbiy faoliyat ijtimoiy xususiyatga ega, va shuning uchun uning muvaffaqiyati universitet bitiruvchisining ijtimoiy va kommunikativ xususiyatlariga bevosita bog'liq. Yuqori sifatli kasbiy tayyorgarliksiz malakali mutaxassis tayyorlanmaydi; tarbiyaviy ta'sirsiz, birinchi navbatda, insonparvarlik bilimlari bilan to'laqonli shaxsni shakllantirish mumkin emas. Faqat integratsiya orqali ta'lim jarayonida keng tushunilgan ta'lim faoliyati yaratilishi mumkin. Talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar; tafakkur madaniyatini rivojlantirish, ularning intellektual, madaniy va axloqiy salohiyatini yuksaltirishda ularning talablarini qondirish lozim.<sup>11</sup>

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Юркина Л.В. «Интеграция науки и образования: тенденции и возможности» журнал «Теория и практика общественного развития» (2014, № 2) стр 147-149
2. Шагарова Е.Д. «Управление профессиональным развитием педагога в современных условиях» диссертация, Екатеринбург 2018, стр 92
3. Воеводина С.А. «Профессиональное развитие личности педагога» Учебно-методический комплекс Новополюцк 2005. Стр 88
4. Социально-философские аспекты учения Ф.Гюлена Издательский дом "Белорусская наука" 2012, 265 стр
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>

#### **MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TA'SIR USHLBLARI**

*Abdullayeva Feruza SHavkatovna* CHDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi  
*abdullayevaferuza0704@mail.com*

*Abduqodirova Nozima Sindor qizi* CHDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizasiya qilinishi uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda, o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tadbiq etish bilan bir qatorda,

---

<sup>11</sup> [2, 65]

ta`lim tarbiya jarayoni ishtirokchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ular uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishni bugungi kun talab etmoqda.

Maktabgacha ta`lim sohasi uzliksiz ta`lim tizimining ilk bo`g`ini hisoblanadi va butun ta`lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo`lgan- barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta`lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy- texnika bazasini mustahkamlashga yo`naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari" qarori qabul qilindi. Dastur asosida keng ko`lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko`zda tutilgan: bolalarning har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg`or horijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar; maktabgacha ta`lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o`quv reja va dasturlarni zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish shuningdek, ta`lim-tarbiya jarayonida sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o`z ijodiy va intellektual salohiyatini ro`yobga chiqarish bo`yicha qo`yilgan vazifalarda ta`lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktabgacha ta`lim, umum ta`lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy ta`lim muassasalarida o`qitish sifatini tubdan yaxshilash samarali tizimini yanada rivojlantirish ko`zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Hozirgi zamon talablariga binoan maktabgacha ta`lim muassasalari pedagoglari oldida eng muhim vazifalaridan biri jahon andozalari talablariga javob bera oladigan bilimli, zukko bolalarni tarbiyalashdan iborat.

Ta`limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta`lim markazida bo`lishini va yoshlarning mustaqil ta`lim olishlarini ta`minlash uchun ta`lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko`rgan va o`z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik mashg`ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o`qituvchilar kerak. Buning uchun barcha o`qituvchilar va tarbiyachilarni yangi pedagogik texnologiyalarni va inter faol usullarni bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o`quv tarbiyaviy mashg`ulotlarida qo`llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Bugungi kunda ta`lim jarayoniga pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga oid qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda jumladan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda, shuningdek, internet sahifalarida pedagogi, va axborot texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan ko`plab tadqiqotlar va ularning natijalarini ifodalaydigan materiallar berilgan. Lekin pedagogik texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, texnik vositalarga talab va ehtiyojning ortib borishi bilan mazkur pedagogik

texnologiyalaridan maktabgacha ta'lim muassasalari elementar matematik tasavurlarni shakllantirish jarayonida foydalanish sifat jihatidan ancha orqada qolmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga matematik bilim berish jarayonida bolada ilk bor kundalik matematikaga oid atamalarni o'rganadi. Bola matematikaga oid bilimlarning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, u barcha sohalarni o'rganish uchun muhimligini his etishi lozim. Ular kundalik muloqotda atamalardan foydalansalar asta-sekin bu atamalar bolalar ongiga singib boradi. Bugunga qadar maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish, ta'lim mazmunini aniqlash, o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish, ta'lim mazmuni doirasida ta'lim-tarbiya elementlarini uyg'unlashtirish, maktabgacha ta'lim davlat ta'lim dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tadbiq etish mexanizmlarini belgilash kabi muammolar yuzasidan pedagog olimlarimiz o'z tadqiqotlarida izlanishlar olib borgan bo'lsalarda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematik bilim berish, bolalarning matematik bilimdonligini rivojlantirishning dedagtik asoslarini yaratish bugungi kunda pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biridir.

Chex olimi YA.A.Komenskiy bola shaxsiga ta'sir etish muammosi bilan shug'ullangan. "Har bir o'qituvchini pedagogik vosita bilan qurollantirish mumkin va kerak, faqat shundagina uning ishi yuqori natija beradi, o'qituvchining o'rnini esa quyosh ostidagi eng yaxshi joydan iborat bo'adi".

Tarbiyaga uslubiy nuqtai nazar - tarbiyalanuvchining madaniyatga yaqinlashishidir. Ushbu muammoni ko'rib chiqishdagi kasbiy yondashuv pedagogning shaxsiy sifatлари, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalari asosida bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Pedagogik texnologiya ilmiy bilimlar tizimi sifatida tarbiyaviy jarayonni ta'minlashi va muqobillashtirishi kerak. Tarbiya-pedagogik erkin va xohishiga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatda amalga oshadigan obyektiv jarayondir. Shaxsning rivojlanishi bir daqiqa ham to'xtamaydi. pedagogning vazifasi tarbiyaviy jarayonni bolaning insoniyat madaniyatiga "ko'tarilishi" tomon yo'naltirish, ko'p ming yillar moboynda insiniyat tomonidan ishlab chiqilgan tajriba va madaniyatni mustaqil egallashga ko'maklashishdan iborat. Agar tarbiya -madaniyatga doimiy ravishda ko'tarilishi va har kuni barcha hayotiy aktlarda madaniyatni yaratish bo'lsa, u holda tarbiyaning vazifasi rivojlanish jarayonida mustaqil ravishda o'zining hayot tarzini ko'rish qobiliyatini egallaydigan, munosib Odam shaxsini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyani hodisa sifatida turli; ijtimoiy, kasbiy, uslubiy va boshqa nuqtai nazardan qarab chiqish mumkin. Ijtimoiy holat bolaga uzatish zarur bo'lgan qadiryatlar majmuasini qo'yadi. buning uchun, ushbu qadiryatlar bilan amallar bajara olish ularni yetkazuvchisi bo'lishi uchun o'qituvchisining maxsus tayyorgarligi zarur bo'adi.

Pedagogik texnologiyalar nuqtai nazardan pedagogik ta'sir uslublarini qo'llashning.

- bolalarga qo'yiladigan pedagogik talablarni hurmat ila olib borish ;
- har qanday pedagogik ta'sirning fahm- farosatligi va tayyorligi;

-ushbu ta'sirni oxiriga yetkazish kabi umumiy qoidalari muhim holatlarni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning keyingi rivojlanishi pedagogik mahoratning tashkil etuvchilarini aniqlash bilan bog'liq. Bu yerda pedagogik texnika o'qituvchining o'quvchiga shaxsiy ta'sirning turli tuman usullar kabi tushiniladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. I.V.Grosheva, D.T.Mahmudova, SH.B Nabixonova, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T; 2022.
2. Ishmuhammedov, Abduqodirov A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Toshkent "Istedod jamg'armasi" 2008.
3. F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, M.Azamova "Maktabgacha pedagogika", Toshkent "Manaviyat" 2019.
4. F.Sh.Abdullayeva. N.S.Abdugodirova "Tarbiya yoshlar kelajagi poydevori" Kinds of popular scientific articles jurnali 2022 yil 15 oktabr soni

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK VA TA'LIMNI BOSHQARISHNING METODI VA VOSITALARI**

*Abdullayeva Lobar Bahodirovna Toshkent shahri, Uchtepa tumani 592-sonli MTT direktori*

Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har birimiz sezib, kuzatib turibmiz. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim tashkiloti rahbarlari oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda pedagog xodimlarning faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalar darajasini, qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini, shuningdek, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o'rganishlari va shular asosida boshqaruv jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan qarorlarni qabul qilishlari hamda ularni amalga oshirish uchun turli tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishni ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi keltirilgan muammolarni inobatga olish va ularni ijobiy yechimlarini topish boshqaruv faoliyatida samaradorlikka erishishning asosiy sabablaridan biri sifatida xizmat qiladi:

-ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayonida innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish;

-rahbarning boshqaruv madaniyati, shaxslararo munosabatlar hamda tarbiyaviy munosabatlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida shakllantirish;

-ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyati jarayonida rahbarning kasbiy mahorati va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;